TO'LDIRUVCHI VA UNI O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI TATQIQOTI

Toshkent Kimyo Xalqaro
universiteti Namangan filiali
O'zbek tili va adabitoti fanining
1-kurs talabasi Anapiyayeva Durdona

Annotatsiya :Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida to'ldiruvchining grammatik xususiyatlari ,uning gap tuzilishidagi o'rni hamda ilmiy tadqiq etilishi jarayonlari yoritiladi. To'ldiruvchi kesim bilan bog'lanib, harakatning obyekti yoki yo'nalishini bildiruvchi ikkinchi darajali bo'lak sifatida tahlil qilinadi. shuningdek uning turlari va ifodalanish vositalari haqida qisqacha malumot beriladi.

Kalit so'zlar:to'ldiruvchi, gap bo'laklari, vositasiz to'ldiruvchi, vositali to'ldiruvchi, sintaksis, kesim, obyekt.

Asosiy qism:O'zbek tilida to'ldiruvchi gapning ikkinchi darajali bo'lagi bo'lib, kesim orqali ifodalangan harakatning kimga yoki nimaga qaratilganligini bildiradi.

Gapning fe'l bilan ifodalangan biror bo'lagiga boshqaruv yo'li bilan bog'langan

kimni?

nimani?

qayerni?

kimga? nimaga?

kimda? nimada?

kimdan? nimadan?

kim uchun? nima uchun?

kim haqida? nima haqida?

kabi so'roqlarga javob bo'luvchi ikkinchi darajali bo'lakka To'ldiruvchi deyiladi.

To'ldiruvchi kesimdan anglashilgan harakat-holat, belgi-xususiyat bilan bog'langan predmetni bildirgani tufayli ot, olmosh va otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi.

To'ldiruvchi doim gapning kesimi bilan bog'lanadi .

To'ldiruvhilar yoardamida aytilmoqchi bo'lgan fikr ravishlashadi :

Oyni (etak bilan)yopib bo'lmaydi .

Odam (mehnatda)sinaladi .

Bu gaplarda etak bilan ,mehnatda bo'laklari yordamida so'zlovchining niyati to'la ochilgan .

To'ldiruvchi nimani ifodalashiga ko'ra ikki bo'linadi:vositasiz to'ldiruvchi va vositali to'ldiruvchi .

Belgili yoki belgisiz tushum kelishigidagi to'ldiruvchi vositasiz to'ldiruvchi deyiladi .

Vositasiz to'ldiruvchi

kimni?

nimani?

so'roqlariga javob bo'ladi .

Vositasiz to'diruvchida belgisiz kelgan tushum kelishigidan extiyot bo'lish lozim .Chunki belgisiz kelgan tushum kelishigidagi so'zning shakli egaga o'xhsab qoladi . Ukam she'r(ni)o'qidi .

Tushum kelishigidan boshqa shakildagi to'ldiruvchi yoki ko'makchilar orqali shakillangan to'ldiruvchilar vositali to'ldiruvchi sanaladi.

So'roqlari:

kimga?, nimaga ?

kimdan?, nimadan ?

kim uchun?, nima uchun ?

kim haqida ?, nima haqida ?

kim bilan ?, nima bilan ?

Vositali to'ldiruvchi jo'nalish ,chiqish ,ba'zan o'rin-payt kelishiklari yoki uchun , bilan ,orqali ,xususida ,to'g'risida kabi ko'makchilarni olgan so'zlar yoki so'z birikmalari bilan ifodalanadi .

Erkin birikma bilan ifodalangan murakkab to'ldiruvchi gap mazmununi to'ldirish ,oydinlashtirish vazifasini bajaradi .

XULOSA :

Xulosa qilib aytish mumkunki ,o'zbek tilida har bir gap bo'lagining gapdagi o'rni muhimdir .Gap bo'laklarini samarali va o'rimli qo'llash tildagi muammolarni bartaraf etishning bir sintaktik birliklaridan biri hisoblanadi va gapning mazmunini boyitadi .Uni ilmiy jihatdan o'raganish tilshunoslik rivojida muhim ahamiyat kasb etadi .

ADABIYOTLAR :

Shohrux P. " Ona tili yangi qo'llanma " .-Toshkent ,2021

Rasulov R."Umumiy tilshunoslik ".-Toshkent ,2017

Zulxumor X."Tilshunoslik nazariyasi ".